

TEODOR DRAYZERNING HAYOTI VA IJODIGA QISQA EKSKURS

Atabayeva Nilufar Atamuratovna,
*UrDU, Xorijiy filologiya fakul'teti,
Fakultetlararo chet tillar kafedrası
mustaqil tadqiqotchisi*

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada buyuk Amerika yozuvchisi va jamoat arbobi, o'z ijodida realism va naturalism tamoyillarini birlashtirgan, ko'plab mashhur roman va hikoyalar muallifi Teodor Herman Albert Drayzerning hayoti va ijodiga qisqa ekskurs qilingan. T.Drayzerning "Baxtiqaro Kerri", "Jenni Gerxardt", "Sarmoyador", "Titan", "Matonat", "Daho", "Amerika fojiasi", "Tayanch" asarlari dunyoning turli tillariga tarjima qilingan. Adib asarlariga xos umuminsonniy badiiy xususiyatlar tahlil etilgan.*

***Kalit so'zlar:** Teodor Drayzer, realizm, naturalism, roman.*

XX asr Amerika nasri taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan naturalizm maktabining eng yorqin namoyandalaridan biri Teodor Drayzer o'zining realistlik asarlari bilan butun dunyoga mashhurdir. U o'z asarlarida zamondoshlari ijodining asosiy g'oyalarini o'z ijodiga singdirib, o'zining individual badiiy uslubini shakllantirgan yirik nosirdir.

Teodor Herman Albert Dreiser 1871-yil 27 avgustda Indiana shtatining O'rta G'arbiy Terre Haute shahrida tug'ilgan. Drayzerlar oilasi kambag'allikchilik vajidan oila boshlig'i har qanday ishni qilishga majbur bo'ladi. Ularning oilasi serfarzand edi. Ota to'qqizta bolani boqish uchun tirikchilikning barcha ko'chalariga kirib chiqishga majbur bo'ladi. Moliyaviy ahvoli tang bo'lganligi sababli bo'lajak yozuvchi maktabni tugatgach, otasining uyini tark etib, Chikagoga ishlash uchun ketadi. U yerda Drayzer restoranda farrosh, do'konda usta, hatto yuk tashuvchi singari mashaqqatli mehnatlarni ham bajarishga majbur bo'lgan. 1889 yilda yozuvchi Blumingtondagi Indiana universitetiga kirish imtihonlarini muvaffaqiyatli topshiradi. Biroq oilaviy ahvoli tufayli Herman ta'lim muassasasini tamomlay olmaydi.

Drayzer oilaviy turmush tarzini yaxshilash maqsadida shahardan shaharga ko'chib yurdi va o'sha yillari (1892 yildan 1894 yilgacha) Teodor Pitsburg, Toledo, Chikago, Sent-Luis va Nyu-Yorkdagi gazetalarda muxbir vazifasida ishlashga muvaffaq bo'ldi.

Teodor Drayzerning ijodiy hayotiga N. Lev Tolstoy, Jek London kabi taniqli adiblarning ijodi katta ta'sir ko'rsatadi. Buni Teodor Drayzerning o'zi ham haqli ravishda tan olib, ayniqsa, bu ikki buyuk adiblarning deyarli barcha asarlarini o'qib chiqqanligini ta'kidlab, uning qarashiga katta ta'sir o'tkazganligini badiiy ijod bo'sag'asiga yetaklab kelganligini alohida e'tirof etib o'tadi

Uning birinchi debyut romani "Baxtiqaro Kerri" 1900 yilda nashr etilgan. Syujet Chikagoga yaxshiroq hayot izlab kelgan, provinsiyalik qiz Karolina (Kerri)

Miberning sargushatiga asoslangan. Asarda amerikalik muallif uchun an'anaviy bo'lgan "Boylik va shon-shuhrat" motivi asos bo'lgan. Yozuvchi inson o'z farovonligi va nafsi uchun qanday tubanliklarga duch kelishini yozuvchi turli xil voqealar fonida tasvirlab beradi. Romanning asosiy qahramonlari - Kerri va uning hayotida asosiy rol o'ynagan ikkita erkak (Druet va Xerstvud) insoniylik jihatdan mehr, minnatdorchilik, rahm-shafqat va muhabbatga begona va uchalasi ham o'z manfaatini o'ylaydigan shaxslar sifatida tasvirlanadi. [Drayzer T. 3]

Ikkinchi asar – "Jenni Gerxardt" 1911 yilda nashr etilgan. Bu asar markazida ajoyib qalb sohibasi bo'lgan qiz Jennining taqdiri turadi. Yaxshi niyatli, his-tuyg'ulari beg'ubor Jenni o'zining halol mehnati bilan kun ko'rishga, oily janob inson bo'lib yetishishga intiladi. Biroq kapitalistik tuzumning yovuz kuchlari bu pokiza qiz taqdirini ham o'z girdobiga tortib ketadi, uning sof muhabbatini paymol etadi. "Jenni Gerxardt" yozuvchining tengsizlik olamidagi inson taqdiriga bag'ishlangan eng yaxshi asarlaridan bo'lib, roman jahon romanchiligining klassik namunasiga aylandi. [Drayzer T. 4]

1912-yilda "Istak" trilogiyasining birinchi romani "Sarmoyador" nashr etildi. Amerikalik millioner Charlz Yerkesning tarjimai holi asosida yaratilgan asar kitobxonlarga Frenk Kaupervudning hayoti haqida hikoya qiladi. Asarning bosh qahramonikichik bank xodimi oilasida dunyoga keladi, o'g'li voyaga yetgach, sevimli farzandini o'zi ishlagan korxonaga ishga joylashtiradi. Tashkilotda iste'dodli biznesmen sifatida tanilgan, Frenk biroz vaqt o'tgach, Filadelfiyani zabt etish uchun jo'nab ketadi. U erda birja brokeri bir nechta samarali bitimlarni amalga oshirib, millionerga aylanadi hamda yosh tadbirkor Filadelfiya oliy jamiyatining eng yuqori darajadagi doiralari kirishga imkon beradi.

Asarda bosh qahramonning moliyaviy firibgarligi turli xil voqealar va xarakterlar fonida yoritiladi. Drayzer bosh qahramonqiyofasida ijobiy va salbiy fazilatlarini hamohang tarzda tasvirlagan. Kiborlar jamiyatining umumiy qonun qoidalari va tamoyillari bilan hisoblashishni istamagan Frankning isyonkorfe'li tufayli qamoqqa olinadi. [Drayzer T. 6]

1914 yilda nashr qilingan navbatdagi "Titan" romanidagi voqealar Chikagoda bo'lib o'tadi. O'z qilmishlaridan to'g'ri xulosa chiqara olmagan Frenk o'zining firibgarlik yo'lidan qaytmaydi. Endi uning maqsadi gaz va transport kompaniyalari edi. Moliya sohasining dahosi ayrim amaldorlarga pora beradi, boshqalarni qo'rqitish yo'lga o'tadi. Natijada bu firibgar tadbirkor tomonidan beixtiyor zarar ko'rgan raqobatchilar u bilan hokimiyat uchun shiddatli kurashga kirishadi va oxir oqibat Frenk Koupervud jangda yutqazadi. Shundan so'ng bosh qahramonning oilaviy-shaxsiy hayotida qora kunlar boshlanadi. Xotin erining yosh qiz bilan munosabati haqida bilib, o'z joniga qasd qilishga harakat qilmoqchi

bo‘ladi. Frank uni qutqarib qolishga muvaffaq bo‘ladi va o‘zi bilan birga Londonga borishga ko‘ndiradi, uning so‘zlariga ko‘ra, ular yangi hayot boshlashadi. [Drayzer T. 8]

Uchinchi va oxirgi romani “Matonat” (1947 yilda yozuvchi vafotidan keyin nashr etilgan) harakatlari Fransiya poytaxtida bo‘lib o‘tadi. U yerda Koupervud metro liniyasi qurishni boshlaydi. Yoshi katta bo‘lishiga qaramay, u hali ham nafsi yo‘lida ovorai-sarson bo‘lib, mol-dunyo ilinjida harakat qilishdan to‘xtamaydi.

Bu safar buyrak kasalligi uning rejalariga xalaqit beradi. O‘g‘ir xastalikdan so‘ng, firibgarona orzulari baxtli va tinch hayot kechirishga imkon bermagan Frenk o‘limidan oldin xotini va xo‘jayini oldida gunohlariga iqror bo‘ladi va vafot etadi. [Drayzer T. 5]

“Istak” romani tarkibiga kiruvchi asarlarning nashr etilishi oralig‘ida “Daho” (1915), “Amerika fojiasi” (1925) va “Tayanch” (1946) asarlari ham yaraldi.

“Daho” yarim avtobiografik romani kitobxonlarni burjua muhiti ta‘sirida shaxsiyati o‘zgarib turadigan rassom Yevgeniy Vitla hayoti bilan tanishtiradi. Roman qahramoni Evgeniyning butun hayotini Drayzer uch bosqichga bo‘lib tasvirlagan: yoshlik, kurash, isyon. Roman badiiy jihatdan Drayzerning eng kam muvaffaqiyat qozongan romanlaridan biri hisoblanadi. Ushbu asarda bosh qahramonning rassom sifatidagi karerasi va uning ideal ayolga bo‘lgan intilishlari tasvirlanadi. [Drayzer T. 7]

“Amerika fojiasi” asarinig syujeti 1906 yilda Amerikada sodir bo‘lgan hayotiy voqealarga asoslangan. Bu ishni mantiqan uch qismga bo‘lish mumkin. Birinchisida kitobxon bosh qahramon Klayd Griffiths bilan tanishadi. Klaydning oilasi dindor oila bo‘lib, diniy missiya bilan Amerika shaharlariga sayohat qilib turadi.

Uning ota-onasi dinning mohiyatini tushungani uchun imkon qadar odamlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlashni o‘z burchlari deb hisoblashadi. Biroq bunday dunyoqarash Klayd uchun begona edi. Qashshoqlikda kun kechirayotgan yigit butun fikru-hayoli bilan yaxshi hayotga intilar edi. Shu tariqa u mehmonxonaga xabarchi bo‘lib ishga kirdi. U yerda u yangi do‘stlar orttiradi. Ular bilan ichkilikbozlik, maishat qilishlikni o‘ziga odat qilib oladi. Klaydning badavlat mehmonlarning o‘yin-kulgilari, hashamatli hayotini tomosha qilib, boylikka bo‘lgan ishtiyoqi tobora ortib boradi.

Romanning ikkinchi qismi Chikagoda boshlanadi. Aynan o‘sha erda bosh qahramon o‘z ona yurtida sodir bo‘lgan nohush voqeadan keyin qochib ketadi. Baxtga ko‘ra bu shaharda amakisini uchratib qoladi va u unga yoqa fabrikasida ishlashni taklif qiladi. Griffiths taklifni qabul qiladi va darhol Nyu-Yorkdagi Likurgga ko‘chib o‘tadi. Ishlab chiqarish sohasida mehnatkash bu yigit qisqa vaqt

ichida yaxshi lavozimga ko‘tarilishga muvaffaq bo‘ladi. Xuddi shu davrda uning shaxsiy hayotida o‘zgarishlar sodir bo‘la boshlaydi.

U Roberta ismli kamtarin, go‘zal bir qizni sevib qoladi. Biroq munosabatlari samimiy tus ololmaydi. Keyin uning hayotida aristokrat xonim Sandra paydo bo‘ladi. Uchinchi qism Griffithsning boy badavlat xonim va uni beg‘araz sevgi bilan sevadigan qiz o‘rtasidagi chigal munosabatlarga bag‘ishlangan. Vaziyat Roberta qornida bolani ko‘tarib yurganligi sababli murakkablashadi, shuning uchun Klayd uni shunchaki tashlab keta olmaydi. Undan qutilish uchun uni ko‘lga cho‘kdirib o‘ldiradi. [Drayzer T. 2]

“Tayanch” romani Kvakerlarning pravoslav diniy harakatiga mansub Barns oilasining hayoti haqida hikoya qiladi. Besh farzandning voyaga yetishi bilan bog‘liq avlodlar to‘qnashuvi asarning markaziy chizig‘ini tashkil etadi. [Drayzer T. 9]

Adabiyot dahosining shaxsiy hayotiga nazar tashlaydigan bo‘lsak u birinchi rafiqasi Sara Osborn Uayt bilan 1893 yilda tanishgan. Keyin Sent-Luis respublikasi gazetasining yosh muxbiri Teodor Drayzerga “Eng yaxshi o‘qituvchi” tanlovi g‘oliblarini Chikagodagi Jahon ko‘rgazmasiga hamrohlik qilish tayinlanadi. G‘oliblar orasida uning bo‘lajak rafiqasi ham bor edi. Qizning soddaligi, go‘zalligi, uyatchanligi yozuvchini o‘ziga rom etgan. 1898 yil 28 dekabrda Vashingtonda Herman Teodor Drayzer va Sara Osborn Uayt qonuniy turmush qurishdi. Biroq 1909 yilda ular ma‘lum sabablarga ko‘ra ajrashishdi.

Bu orada yozuvchi hayotida Thelma Kudlipp paydo bo‘ldi. Thelma Dreiser tomonidan tahrirlangan jurnal xodimlaridan birining qizi edi. Umrining oxirida, 1944 yilda Teodor amakivachchasi Xelen Richardsonga uylandi.

Teodor Drayzer 1945 yil 28 dekabrda Los-Anjelesda (Kaliforniya) yurak xastaligidan vafot etdi. Adibning ijodiy merosi roman va hikoyalar to‘plamlarida saqlanib qolgan. 1931 va 1951 yillarda AQShda rejissyorlar Jozef fon Sternberg va Jorj Stivens tomonidan Drayzerning “Amerika fojiasi” romani asosida filmlar suratga olingan. Shuningdek, yozuvchining “Jenni Gerxardt” (1933) va “Baxtiqaro Kerri” (1952) asarlari suratga olindi. Adibning ko‘pchilik romanlari dunyoning turli tillariga tarjima qilingan.

Shu jumladan, adibning bir qator roman va hikoyalari o‘zbek tiliga bilvosita rus tili orqali o‘zbekchalashtirilgan. Binobarin, Drayzerning o‘zbek tarjimonlari Erkin Nosirov (“Baxtiqaro Kerri”, “Amerika fojiasi”, “Jenni Gerhardt” romanlari), Orif Hoji (“Qudratli Rurk”), Xolida Ahrorova (“Erk”), Saidjamol Saidmurodov (“Neft”, “Izg‘irinda”, “Omonat”, “G‘aroyib jumboq” hikoya) kabi mutarjimlar o‘tgan asrning 70-80- yillarida asosan, rus tili orqali o‘zbekchalashtirib, kitobxonlarga taqdim etishdi. Mustaqillik yillarida jahon adabiyotining boshqa titan

ijodkorlari singari Teodor Drayzer asarlari ham asliyatdan ba’zi yosh mutarjimlar, jumladan Qandilat Yusupova (“Qoracha Jef” hikoya asliyatdan tarjima) tomonidan o‘girila boshlandi. Adib asarlari asosan, bilvosita til orqali tarjima qilingan.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. T.Drayzer “Amerika fojiasi”, Erkin Nosirov tarjimasi I-jild T.: “O‘qituvchi” 2018.
2. T.Drayzer “Amerika fojiasi”, O‘ktam Usmonov tarjimasi II-jild T.: “O‘qituvchi” 2018.
3. T.Drayzer “Baxtiqaro Kerri”, Erkin Nosirov tarjimasi. T.: “Yangi nashr” 2019.
4. T.Drayzer “Jenni Gerxardt”, Erkin Nosirov tarjimasi. T.: “Yosh gvardiya” 1982.
5. T.Drayzer “Matonat”, Amir Fayzulla tarjimasi T.: “Noshir” 2021.
6. T.Drayzer “Sarmoyador”, Muhabbat Ismoilova tarjimasi T.: “Mashhur Press” 2021.
7. Теодор Драйзер «Гений» перевод с английского Марка Волосова, «ФТМ» 1915.
8. Теодор Драйзер «Титан» перевод с английского Валентины Курелла, Т. Озерской «ФТМ» 1914.
9. Theodore Dreiser “Bulwark”, Doubleday 1946.